

INGLIZ TILINING SHAKLLANISH VA RIVOJLANISH BOSQICHLARI"

Zulfiqorova Habiba Shamsiddinovna

Jahon tillari universiteti 1-kurs talabasi

Annotatsiya: *Mazkur maqolada tillar paydo bo'lishi haqida farazlar, ingliz tilining rivojlanish bosqichlari, bu evolyutsiya davomida xalqlarning tutgan o'rni, boshqa tillarning ingliz tiliga o'tkazgan ta'sirlari, tilning asrlar davomida grammatik, leksik, yozuv jihatdan o'zgarishlari, ommalashuv sabablari, uning hududiy variantlari va umumiy leksikologiyasi haqida yoritib beriladi.*

Kalit so'zlar: *taqlid farazi, undov farazi, biologik faraz, inson ongi, qadimgi ingliz tili, anglo-sakson, kelt tili, normanlar, grammatika, leksikologiya, yozuv, hind-yevropa tillar oilasi, german tillar guruhi, runik yozuvi, lotin alifbosi, o'rta ingliz tili, standart adabiy til, orfografik barqarorlashuv, buyuk unli surilishi, diftong, lug'atlar, mustamlakachilik, lingua franca, hududiy variantlar, American English, Australian English, British English, umumiy lug'at boyligi*

Har bir jarayonning o'z ibtidosi, har bir narsaning paydo bo'lish, shakllanish tarixi mavjud. Yer yuzdagi hech bir narsa (insoniyat, hayvonlar, o'simliklar va hokozolar) birdan mukammal ko'rinishga, shakl-shamoyilga kelmagan. Dastlab sodda holda paydo bo'lgan, vaqt o'tishi bilan o'zgarishlar asnosida mukammallasha boradi va bugungi holatiga keladi. Shu jumladan, biz bilgan hamda tanigan o'zbek, ingliz, fransuz, rus, italyan, ispan kabi tillar ham xuddi shunday bosqichlardan o'tgan, xuddi shunday jarayonda shakllanib, hozir biz muloqot qiladigan darajaga kelgan.

Tillarning qachon, qayerda paydo bo'lganligi haqida aniq ma'lumotlar mavjud emas, ammo turli xil farazlar-qarashlar bor. Bunga ko'ra, nemis olimi G. Leybnitsning qarashlari shuni ko'rsatadiki, tovushlarga, hayvon va qushlar ovozigacha, tabiat hodisalariga taqlid qilish jarayonida so'zlar yasalgan, til yuzaga kelgan. Masalan, miyov, sharshara, taqillamoq.... Biroq tilimizda shunga o'xshash taqlid so'zlarning kamligi-yujonsiz narsalarning tovush chiqarmasligi bu farazning haqiqatdan yiroqligini isbotlab turadi. Tilning paydo bo'lishiga doir ikkinchi ilgari surilgan fikr undovlar farazidir. Bu faraz qadimiy qarashlarga, asoslarga tayangan holda keng tarqalgan. Faraziya asoschilari— Sharl de Bross va Jan Jak Ruso fikricha, ibtidoiy odam jamoalari hayvonlarning baqiriq-chaqiriqlarini o'rganish orqali o'zlarining ichki kechinmalarini, hissiyotlarini, gam-a'lamlarini ifodalashgan: oh, ux, eh kabi undov so'zlar bunga yaqqol misol. Ammo hissiyotni ifodalaydigan tovushlar bilan tushunchani ifodalaydigan tovushlar o'rtasida farqlar mavjud. Demak, tilni bu faraz asosida kelib chiqqan degan fikrimiz ehtimoldan yiroq.

Uchinchi qarashimiz biologik farazni yoqlaydi. Nemis tilshunosi August Shleyxer Darwin ta'limoti asosida va ta'siri ostida tilni tabiiy organizm sifatida o'z-o'zidan paydo bo'lishi, rivojlanishi va ma'lum hayot davrigacha ega bo'ladi hamda organizm kabi o'lishi to'g'risidagi qarashini ilgari suradi. Shuningdek, yana bitta ommaga keng tarqalgan

faraz— tilning inson ongi tufayli yuzaga kelishi. Chunki ba’zi olimlarning ilmiy yondashuviga ko’ra, inson aqliy qobiliyatining to’xtovsiz rivojlanishi natijasida kishilar bir-biri bilan muloqot qilish imkoni tug’ildi. Ushu taxmin mantiqqa, haqiqatga yaqin bo’lib tuyildi. Zero inson aqliy zakovati, uning darajasi bilan til orasida bog’liqlik bo’lsa-da, ko’plab olimlar, tilshunoslar nazdida bu farazda ham g’alizlik bor, shuning uchun rad etishdi. Ingliz tili ham xuddi shu farazlar bo’yicha taroziga tortildi, o’lchandi, biroq aniq javoblar bilan isbotlanmadi. Aslida, ingliz tili rivojlanishi V asrlarga, ya’ni Shimoliy dengiz tomondan kirib kelgan kelgindilar Buyuk Britaniya va Kelt orollarini bosib olgan vaqtlarga borib taqaladi. Tarixga nazar tashlarkanmiz, asosan, ingliz tili 3 davrni boshidan o’tkazgan .

Birinchi davr “qadimgi ingliz tili (anglo-sakson)” deb nomlanib, V asr o’rtalaridan to XI asrgacha davom etgan. Bu davrda Buyuk Britaniya hududida qabilalar o’rtasida nizolar, qonli janglar bo’lib o’tayotgan edi. Anglar, sakslar, yutlar Biritaniya hududiga bostirib kirdi, mahalliy qabilalarni (shotlandlar, irlandlar) Bretan yarim oroliga haydab yubordi-yu, o’zlari Britaniya oroliga egalik qilib, boshqaruvni qo’liga oldi. Bu davrning IX-XI asrlarida yana qabilalar orasida nizolar kuchaydi. Anglosakslar va daniyaliklar orasida urushlar bo’lib o’tadi. Urushlar davomida daniyaliklar g’olib chiqib, anglosaks qabilariga qo’shib yashab, chatishib ketdilar. Bu hodisalar ,albatta, mahalliy aholining tiliga, madaniyatiga , yashash tarziga o’z ta’sirini ko’rsatmay qolmaydi. Dastlab Angliyada kelt tilida(kelt tillariga irland, shotland tillari mansub) gaplashishgan. Biroq angla-sakson istilosidan so’ng ingliz tili ommalashdi va tilda kelt so’zlari juda kam qoladi. Anglo-saksonlar turli xil shevalarda muloqotga kirishgan. Keyinchalik normanlar, ya’ni daniyaliklar istilosi natijasida ingliz tilida skandinav tilining elementlari ham paydo bo’ladi. German tillar guruhiga mansub bu til ingliz tiliga ham sezirarli ta’sir ko’rsatadi. Shuning uchun anglo-sakson tilidan farq qiladigan yangi til vujudga keldi . Ushbu til zamonaviy ingliz tilining asosiga aylandi. Ushbu davrda tilda grammatik, leksik yozuv jihatdan ham yangiliklar kuzatiladi. Ingliz tili ,aslida, hind-yevropa tillar oilasi, german tillar guruhi , g’arbiy german tillar sinfiga mansub, shu sababli hozirgi ingliz tili lug’at boyligining asosini tashkil etuvchi german ildizli so’zlar shakllangan. Grammatik jihatdan ham tuzilish o’zgardi: otlarda 4 ta kelishik, 3 ta jins (erkak, ayol, o’rta) va son kategoriyalari ham shakllandi. Shuningdek, skandinav tili ta’sirida ingliz tili grammatik soddalasha boshlagan. Dastlab ingliz tilida runik yozuvdan foydalanilgan, keyinchalik xristianlik dini kirib kelishi sababli lotin yozuvi ommalashdi.

Ikkinchi davr XI-XV asrlarni o’z ichiga oladi. Bu davrni o’rta ingliz tili davri deb nomlashadi. Bu vaqt ichida tilga normanlar ko’proq ta’sir ko’rsatdi. Chunki boshqaruv ularning qo’lida edi. Ular asosan fransuz tilida, anglosakslar esa german tilida gaplashardi, lekin boshqaruv va madaniyat tili sifatida fransuz tili faoliyat olib borar edi, shu bois til leksikasi tatkiyiga huquqqa, san’atga, hukumatga, oziq-ovqatga, harbiy mavzularga oid minglab so’zlar kirib keldi. Shuningdek, shevalar aralashib, birlashib, standart adabiy til, ya’niki London shevasi asosida o’rta ingliz adabiy tili shakllana bordi. Bu jarayonga yozuvchilar, ijodkorlar o’z hissasini qo’shdi. Bunga misol tariqasida

Jeffri Choser hamda uning ijodini keltira olamiz. Bosmaxona ham sezilarli ta'sir ko'rsatdi. 1476-yilda Uilyam Kekston tomonidan bosmaxona joriy etildi. Bu esa orfografik – imloviy barqarorlashuvga sabab bo'ldi. Bu davrda ham grammatik jihatdan ham o'zgarishlar bo'lib turdi. Grammatik soddalashish jarayoni davom etar edi: eski ingliz tilidagi murakkab kelishik va jinslar tizimi yo'qolib, gap strukturasi yanada qat'iyroq bo'ldi. Xullas bu vaqt oralig'ida qadimgi ingliz tili tizimidan zamonaviy ingliz tiliga o'tish jarayoni yuz berdi.

Uchinchi davr XVI asrning oxiri, Uilyam Shekspirning ijod yo'liga kirishi bilan boshlangan. Chunki bu ijodkor o'z ijodi bilan til taraqqiyotiga hissa qo'shayotgan edi, uning asarlari adabiy ingliz tilida yozilardi, bu esa jamiyatga adabiy ingliz tilini targ'ib qilardi. Aynan shu davrda “buyuk unli surilishi”— XV-XVIII asrlar oralig'ida ingliz tilida unli tovushlarning talaffuzida ro'y bergan fundamental fonetik o'zgarish sodir bo'ldi va yakun topdi. Bunda uzun unlilar tilning yuqori qismiga qarab siljigan, eng yuqoridagi unlilar esa juftlashgan, ya'ni qo'shaloq unlilarga aylangan. Bu fan tilida diftong deb yuritiladi. Diftonglar ingliz imlosi va talaffuzi o'rtasida katta farqning yuzga kelishiga sababchi bo'ldi. Bu davrga kelib aniq, sodda, tushunarli va tartiblangan lug'atlarga ehtiyoj kuchli edi. Samuel Johnson ommaning bu ehtiyojini qondirib, 1755-yil birinchi nufuzli ingliz lug'atini tuzdi. Keyinchalik Oxford English Dictionary ham tuzildi. Filologlarning ta'kidlashicha, bu ingliz tilida tarixiy prinsiplar asosida tuzilgan eng mukammal lug'atlardan biri ekan. Grammatikada ham standartlashuv jarayoni poyoniga yetayotgan edi, negaki qoidalar tizimlashtirilgan, ta'lim tizimida ham yagona grammatik strukturalar joriy etilgan edi.³

Tilning globallashuvida mustamlakachilik yillari muhim rol o'ynaydi, chunki Britaniya mustamlakachi davlatlar qatorida bo'lgan. Shu tufayli o'zining mustamlakalariga, Osiyo Afrika, Amerika, Okeaniya kabi joylarda keng miqyosda tarqalgan. Bu esa bugungi kunda jahon tiliga aylanishiga sabab bo'ldi. XX asrda Aqsh iqtisodiy va madaniy super kuchga aylangani sababli ingliz tili diplomatiya, xalqaro savdo, fan tili bo'ldi. Internet va texnologiyalar orqali lingua franca (turli ona tiliga ega bo'lgan odamlar o'zaro muloqot qilish uchun ishlatadigan umumiy aloqa tilidir, bu til so'zlashuvchilarning ona tili bo'lishi shart emas; u faqat tushunish va kelishuv vositasi sifatida xizmat qiladi) aylandi

Bugungi kunda ingliz tilida hududiy variantlar ham bir nechta. Birinchisi— British English – Britaniya ingliz tili, ikkinchisi – American English—Amerika ingliz tili, uchinchisi—Australian English—Australiya ingliz tili. Bu variantlar ham talaffuz, lug'at boyligi, ba'zida grammatikada farq qiladi. Ingliz tilining umumiy lug'at boyligi bugun 1 milliondan ortiq so'zni tashkil etadi. Shundan 10000-20000 tasi doimiy so'zlashuvda faol. Ingliz tili so'zlashuvchilar soni 1,5 milliardga yetgan. Shuningdek, 53 ta davlatning rasmiy tili hisoblanadi. Bu ingliz tilining jahondagi mavqeyi.

Xulosa qiladigan bo'lsak, ingliz tili bugungi kunga qadar juda ko'plab jarayonlardan o'tib, bugungi mavqega yetib kelgan va ijtimoiy hodisaligi sababli doimo o'zgarishda.

³ <https://share.google/L18ghm5oCOAPqVm>

Tilning rivojlanishida faqatgina bitta inson yoki bitta qabila harakat qilmagan.

Unga boshqa tillar, xalqlar ham o'z ta'sirini ko'rsatgan, tilning boyishiga, o'sishiga sababchi bo'lgan. Yillar davomidagi o'zgarishlar, ingliz xalqining harakatlari sababli bugun ommaviy til sifatida e'tirof etilmoqda.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. I. Yo'ldoshev, S. Muhamedova, O'. Sharipova, R. Madjidova. Tilshunoslik asoslari.—"The World Periodicals". Toshkent:2023—25-41-b.

2. M. Irisqulov. Tilshunoslikka kirish.—"Ofset laboratoriya". Toshkent:2008—18-19-b, 224-b.

3. I. Yo'ldoshev, O'. Sharipova . Tilshunoslik asoslari.—"Iqtisod-moliya". Toshkent:2007. -161-b.

4. <https://share.google/L18ghm5oOCOAPqJVm>

5. <https://share.google/hY6Xo5k3eABG4gi93>

6. <https://share.google/ONKcRHs2eDzi9JQVB>